https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Rayimboyeva Shahnoza Sherzod qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

shahnozarayimboyeva@gmail.com

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

(Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasi misolida)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasidagi frazeologik iboralarning omonimlik, sinonimlik, antonimlik munosabatlari o'rganiladi. Unda ayrim frazemalarning leksik-semantik xususiyatlari alohida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Frazeologizm, iboralarda omonimlik, iboralarda antonimlik, iboralarda sinonimlik, frazeologiya, frazema, barqaror birikmalar, frazeologik birlik, frazeologik qo'shilma.

Ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror, ya'ni turg'un bog'lanmalarning umumiy nomi - frazeologizm tushunchasidir. Frazeologizmlar shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma'no va muayyan leksikgrammatik tartibli, tayyor materiallar sifatida qo'llanadi. Ya'ni frazeologizmlar tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas: anqoning urug'i, arpasini xom o'rmoq, terisiga sig'may ketmoq, chuchvarani xom sanamoq, kapalgi uchmq, ko'ngli joyiga tushmoq, qulog'i og'ir va shu kabi frazeologizmlar tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ularning ma'nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi. Frazeologizmlarning quyidagi turlari farqlanadi: frazeologik chatishma - frazemaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nosiga bog'liq bo'lmaydi, frazemadan anglashilgan ko'chma ma'no uning tarkibidagi so'zlarning ma'nosi bilan izohlanmaydi, masalan, to'nini teskari kiymoq, oyog'ini qo'liga olib chopmoq, boshini olib chiqib ketmoq va shu kabilar. Frazeologik butunlik - frazemaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlanadi, shu ma'nolar asosida umumlashtiruvchi ko'chma ma'no ifoda qilinadi, masalan, yog' tushsa yalagudek, yeng shimarmoq, xamirdan qil sug'urgandek, to'ydan oldin nog'ora chalmoq va boshqalar. Frazeologik qo'shilma - bunda frazemalar tarkibidagi bir so'z ko'chma ma'noda qo'llanadi, boshqalari esa o'z lug'aviy ma'nosini saqlaydi: gapning tuzi, qo'li gul, ishtaxasi ochildi va hk. Odatda, frazeologizmlarning ma'nosi bir leksema

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ma’nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va leksema ma’nosi teng bo’lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo’lib qolar edi. Misol sifatida, yoqasini ushlamoq frazeologizmi bilan hayron bo’lmoq leksemasining ma’nolarini qiyoslab ko’raylik. Mazkur frazeologizm (yoqasini ushlamoq) “kutilmaganda, tushunib bo’lmaydgan narsa yoki hodisadan o’ta darajada ta’sirlanib, taajjublanmoq) bo’lsa, (hayron qolmoq) leksema esa “kutilmagan, tushunib bo’lmaydigan narsa yoki hodisadan ta’sirlanmoq” sememasiga ega. Har ikki holatda ham kishi ichki ruhiy holati aks etgan. Biroq frazeologizm ma’nosida “o’ta darajada” va “so’zlashuv uslubiga xos”, “bo’yoqdor” semalarga egaligi bilan (hayron qolmoq) leksemasidan farqlanadi. Frazeologizmlar birdan ortiq so’zdan tashkil topadi. Biroq ularning ma’nosi tashkil etuvchi ma’nolarning oddiy yig’indisi emas. Masalan, “qo’yniga qo’l solmoq” frazeologizmining ma’nosi “qo’yin”, “qo’l”, “solmoq” leksemalari ma’nolarini sentezi yoki qo’shiluvchi emas. Frazeologizmlar ma’nosi tashkil etuvchi so’zlar to’la yoki qisman ko’chma ma’noda ishlatilishi natijasida hosil bo’ladi. Masalan, birovning fikrini bilishga urinish harakati uning qo’ynini titkilab, nimasi borligini bilishga intilish xarakatiga o’xshaydi. Natijada qo’yniga qo’l solmoq erkin birikmasi o’zidan anglashilgan mazmunga o’xshash bo’lgan boshqa br mazmunni ifodalashga ixtisoslashadi va qurilma frazeologizmini yasaydi. Bu esa frazeologik iboraning ma’no mantiqiyligidan dalolat beradi.

Mazkur asardagi frazeologik birliklarga to’xtaladigan bo’lsak, ular asarda keng qo’llangan hamda ushbu frazeologik iboralar muallifning badiiy mahoratini, shuningdek, lingivistik salohiyatini ham ochib bergan. Quyidagi frazeologizmlar asarning leksik jihatdan ham mukammal ekanligini tasdiqlaydi.

Qo’l suqmoq - qarashmoq, yordam bermoq, ya’ni biror-bir ishga aralashmoq, yordam bermoq. Aynan asarda ham shunday ma’noda qo’llangan. “Qimmat momo ma’raka yumushlariga qo’l suqadi”[2.68]

Rangi bo’zarmoq - jahli chiqmoq, asabiylashmoq. “Qimmat momo gapidan Oymomo rangi bo’zardi”[2.69]

It tirnamoq - xavotirga tushmoq, xavotir olmoq. Asarda ham shunday ma’no ifodalangan. “Birovni muvafaqqiyatini ko’rsa, ichini it tirnaydi”[2.69]

Fe’li aynidi - fikridan qaytmoq, fikrini o’zgartirmoq. “Xursandoy buni eshitib fe’li aynidi”[2.74]

Bosh suqmoq - aralashmoq. “Qimmat momo ma’raka ishlariga bosh suqdi”[2.68]

Burnidan buloq bo’ldi - chippakka chiqmoq, ya’ni hammasi chippakka chiqdi, bir tiyin bo’ldi degan ma’noda. Asarda ham xuddi shunday ma’no anglatib kelmoqda. “Navro’zlari zahar-zaqqum bo’ldi! Navro’zlari burnidan buloq bo’ldi”[2.75]

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Qovog'idan qor yog'moq - jahl qilmoq, kayfiyati buzilmoq, ya'ni yuzida jahldorlik belgisi ko'rinmoq. "Kelganimdan beri biror marta kulmaysan. Qobog'ingdan qor yog'ilib turadi"[2.70]

Sim tiqmoq - koyish, odamni jazolash, og'ir gaplar bilan xijolat qilmoq. Bu ibora ko'proq biror kishining noto'g'ri ish qilganini qattiq aytib tanbeh berish ma'nosida qo'llanadi. "Qimmat momo yaxshilarga osiladi, yaxshilarga sim tiqadi"[2.71]

Ko'zdan g'oyib bo'lmoq - yo'qolib qolmoq."Muqaddas Buqa bir lahzagina ko'rinish berdi-da, tag'in ko'dan g'oyib bo'ldi"[2.72]

Dast ko'tarmoq - urmoq, musht ko'tarmoq yoki jismoniy zo'ravonlik ko'rsatmoq ma'nolarini ifodalaydi. Biroq mazkur ibora asarda unchalik salbiy ma'noda qo'llanmagan. "Xursandoy otli polvonqomat bir ayol davra kirdi. Ayollarni bitta-bittadan o'yinga tortdi. O'zini ketiga tashlovchi ayollarni qo'ltig'idan dast ko'tarib, davra olib kirdi"[2.73]

Yer yorilib, yerga kirmoq - qattiq uyalmoq. Asarda ham xuddi shu ma'noni ifodalagan. "Yer yorilmadi,Oymomo yerga kirib ketmadi"[2.70]

Beti qurimoq, ya'ni beti qursin - uyalsin, sharmanda bo'lsin degan ma'nodagi qattiq norozilik ifodasi. Bu ibora qarg'ishdir, ya'ni kimningdir noto'g'ri, uyatsiz yoki yaramas ishini qattiq qoralanayotganda aytiladi. "Beti qursin, betidan buzilsin!"[2.80]

Ship-shiydam bo'lmoq - tugamoq,bitmoq, yo'qolmoq ma'nosida. "Onamiz o'ngga-chapga qaragunicha novdalar ship-shiydam bo'ldi"[2.101]

Tinka-madori qurimoq - charchamoq, holdan toymoq. Odatda, bu ibora ko'p mehnat qilgan, yugurib charchagan yoki ruhiy jihatdan holdan toygan odamga aytiladi. 'Otamiz kecha-yu kunduz barg tashiy berib, tinka-madori quridi"[2.101]

Ko'zi ilinmoq - to'liq uxlamagan, endi uxlayotgan odamga nisbatan aytiladi. "Otamiz endi ko'zi ilinib edi, onamiz tag'in turtdi"[2.101]

Gap ochmoq - biror bir mavzuni ochmoq, so'zlab boshlamoq."Yerga qarab gap ochdi"[2.51]

Frazeologiyaning turfa xillari bo'lib, ko'p sonli ifodalari tilshunios va yozuvchilar tomonidan qo'llanishi, uning majoziy va uslibiy ma'no bo'yoqdorligining xilma-xilligi bilan tilshunoslikda ahamiyatli hisoblanadi, shakl va ma'noni chuqurroq o'rganilishini talab qiladi. Shu sababli, frazeologik birliklarni o'rganish - tilshunoslikka oid tadqiqotlarni rivojlantirishga yordamberadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslikka nazariyasiga kirish. - T.; Sharq, 2010.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

2. Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. - T., Pharos ambition, 2024.
3. Mamatov A. E. O'zbek tili frazeologiyasi. O'qiv qo'llanma. - T.: Navro'z, 2019.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi. - T.: Universitet, 1992.
5. "O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati" - T. 2010.
6. "Obek tilining izohli lug'ati". - T. 1978
7. "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami". - T. 2021.
8. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: Talqin, 2005.